

**INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK ASPEKTLATI**

*TMCI institute Pedagogika va
psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
Eshmamatova Sitara Tuyg'un qizi
TMC institut 4-boqich talabasi
Abduqodirova Kamola Mirsaid qizi*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqola maqolada Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar bolalarning ta'lim va tarbiyasiga bo'lgan qarashlarning o'zgarishiga, bu esa mamlakatimiz ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Umumiy va maxsus ta'limning integratsion jarayonlarida tendensiyalar mavjud bo'lib, buning natijasida nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalash muammosi asosiylardan hisoblanadi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga erta tashxis qo'yish va ularga yordam ko'rsatish davlat tizimi ilmiy o'rganish va amaliyotga joriy etish uchun dolzarb bo'lib bormoqda. Shunga ko'ra, turli yosh guruhlari va toifalaridagi bolalarga, ularning yaqin atrofiga, shuningdek, ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilariga psixologik, tibbiy va pedagogik yordam va qo'llab-quvvatlash zarur.

KALIT SO'ZLAR: *inklyuziv ta'lim, pedagogik-psixologik jixatlar, extiyoj, insonparvarlik, maxsus, tuzatish, integratsiyalashgan ta'lim, adekvat, ijodiy fikr*

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются вопросы приобщения детей к национальной культуре и общечеловеческим ценностям через игру, развития у них представлений и впечатлений об окружающем мире и жизни, понимания тех или иных явлений, видения прекрасного, повышения чувства ответственности.

В статье рассматривается роль игры в формировании социализации детей 5–6 лет, описываются особенности процесса социализации детей, раскрывается влияние игровой деятельности на формирование социально ориентированных качеств личности, рассматривается воздействие различных игр на детей дошкольного возраста.

Готовясь к школе, дети знакомятся с разными детьми, и их социальное взаимодействие становится крепче. Ожидается, что они продемонстрируют такие социальные навыки, как сотрудничество, умение делиться, слушание, общение, хорошие манеры и разрешение конфликтов. Дошкольные игры помогают детям осваивать и развивать необходимые им социальные навыки. Мы рассмотрим различные социальные навыки, которые необходимо освоить детям, и то, как их можно развить с помощью дошкольных игр.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: развивающие игры, наглядный материал, дидактические игры, игры с правилами, настольные игры. Словесные игры, темп и ритм игры, сенсорная культура, социализация, характеристики, исследование, образование и воспитание, сотрудничество

ANNOTATION. This article discusses the issues of introducing children to national culture and universal values through play, their perceptions of the environment, life, impressions, understanding of certain phenomena, the ability to see beauty, and increasing a sense of responsibility. The article is devoted to the role of games in the formation of socialization of children aged 5-6 years, describes the features of the socialization process of children, reveals the influence of game activities on the formation of socially oriented personal characteristics, and considers the influence of various games on preschool children.

When a child is ready for school, they get acquainted with different children, and their social relationships strengthen. They are expected to demonstrate social skills such as cooperation, sharing, listening, communication, using good manners, and resolving conflicts. Preschool games help teach and expose children to the social skills they need to learn. We will look at the different social skills that children need to learn and how they can be facilitated through the use of preschool games.

KEYWORDS: educational games, visual material, didactic games, rule-based games, board-print games. Verbal word games, game tempo and rhythm, sensory culture, socialization, characteristics, research, education and upbringing, cooperation

– O‘yin tadqiqotning eng
yuqori shaklidir.» - Albert Eynshteyn

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41- moddasida “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir” deb belgilab qo‘yilganligi ham ta’lim sohasiga bo‘lgan ulkan e’tibordir. Undan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonunga alohida modda kiritilishi va ushbu modda inklyuziv ta’limga bag‘ishlanganligi diqqatga sazovordir.

20-modda. Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi.

Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’limini yanada takomillashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim

ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish 20-modda. Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

Chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Qarorda inklyuziv ta'limning barcha subyektlari uchun psixologikpedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish hamda inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish vazifalari yuklatilgan.

2021/2022 o'quv yilidan respublikamiz miqyosida umumta'lim muassasalarida tajriba sinov tariqasida inklyuziv ta'lim joriy etildi. Bunday birinchi inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflariga o'quvchilar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh me'yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi

ADABIYOTLAR TAHLILI

Inklyuziv ta'limning dastlabki metodologik bazasi Imom al-Buxoriy, Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy va Abdulla Avloniy kabi allomalarimizning asarlarida ilk g'oyalari keltirib o'tilgan. Hammamizga ma'lumki allomalarimizning asarlari Sobiq Sovet mustamlakasi davrida juda ko'plab ilmiy, badiiy kitoblar va qo'llanmalar xorijiy mamlakatlarga olib ketilgan bo'lib, yuqorida aytib o'tilgan olimlarning asarlari ham shular qatorida edi.

Inklyuziv ta'limga ehtiyoj qanday paydo bo'ldi degan savol tug'ilishi ta'biy albatta. Bunday ehtiyoj bevosita jahon urushlariga borib taqaladi. Aynan II jahon urushidan so'ng deyarli urushda qatnashgan barcha davlatlarda juda ko'plab yo'qotishlar qatorida kimningdir otasi, kimningdir onasi, kimningdir farzandi, aka yo ukasi nogironlikka duchor bo'lishdi. Natijada esa Nogironlarning huquqlari ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Butun dunyoda insonparvarlikning huquqiy asosi sifatida 1948-yilda qabul qilingan "Inson Huquqlari Umumjahon Dekloratsiya"si esa barcha insoniyatning huquqini himoya qiluvchi asosiy hujjatdir.

Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. 1970-1980-yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi.

Inklyuziv ta'limga qadar 3xil ta'lim ko'rinishi mavjud bo'lgan bo'lib, ular quyidagilar:

1. Ekslyuziya.
2. Segregatsiya
3. Integratsiya
- 4- ta'lim shakli bo'lib Inklyuziyani kiritamiz.

Ekskuziya bu- nuqsonli bolalarning ta'lim jarayonida qatnashmasligi bo'lib, faqat nuqsonsiz bolalargina ta'lim olishi mumkin bo'lgan ta'lim shaklidir. Segregatsiya bu- nuqsonsiz va nuqsonli bolalar ta'lim jarayonida ishtirok etadi lekin ular alohida maktablarda yoki uyda ta'lim jarayoni olib boriladigan ta'lim shakli hisoblanadi.

Integratsiya bu -Nuqsonli bolalar nuqsonsiz bolalar boradigan maktabga borib ta'lim olishi mumkin faqat ular alohida sinfxonalarda ta'lim olishadi. Inklyuziya (inglizcha “inclusive” “uyg'unlashtirish, “qamrab olish” degan ma'noni bildiradi) esa bu- nuqsonli va nuqsonsiz bolalarni bitta maktabda va bitta sinfda o'qitish imkoniyatini beradigan ta'lim shakli hisoblanadi.

Ozbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan Yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risidagi” qonunning 20-moddasida “Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.” deb belgilab berilgan.

Inklyuziv ta'lim- davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasida to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'iy nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir

TADQIQOT METODOLOGIYASI

MAQSAD: ushbu maqolaning maqsadi — inklyuziv ta'lim jarayonining pedagogik va psixologik jihatlarini o'rganish orqali, ushbu jarayonda pedagoglarning o'rnini aniqlash, ularning kasbiy malakasi, psixologik tayyorgarligi va metodik yondashuvlarini baholash hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi shaxsining roli, uning inklyuziv pedagogika tamoyillarini amalga oshirishdagi mas'uliyati va o'quvchilarni ijtimoiylashuv jarayoniga yo'naltirishdagi amaliy faoliyati yoritiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada inklyuziv ta'lim jarayonining pedagogikpsixologik jihatlarini o'rganish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil (ilmiy adabiyotlar, hujjatlar va tadqiqotlar asosida), pedagogik kuzatish (ta'lim jarayonini bevosita kuzatish orqali), so'rovnoma va intervyular (pedagoglar va o'quvchilar bilan suhbat o'tkazish orqali), hamda tajriba-sinov metodlari (inklyuziv ta'lim bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va natijalarni baholash). Ushbu metodlar yordamida pedagoglarning inklyuziv ta'limdagi roli va faoliyati atroflicha tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: inklyuziv ta'lim jarayonida pedagoglarning o'rni va roli alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu jarayon faqat texnik vositalar yoki dasturlar bilan emas, balki insoniy yondashuv orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagoglarning psixologik va metodik tayyorgarligi inklyuziv ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. O'quvchilar ehtiyojlarini tushunish, individual yondashuvni qo'llash va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish zarurati mavjud. Shuningdek, inklyuziv ta'limga oid tamoyillarni amaliyotga joriy qilishda pedagoglarning motivatsiyasi va ijtimoiy mas'uliyati muhim omillar sifatida baholandi. Bu borada ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan innovatsion metodlar samaradorligi alohida ta'kidlandi.

XULOSA: Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, inklyuziv ta'lim jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglarning kasbiy va psixologik tayyorgarligiga bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'limda pedagoglarning individual yondashuvi, o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashish qobiliyati va ijtimoiy mas'uliyati muhim rol o'ynaydi. Shu bois, pedagoglarning malakasini oshirish, ularga metodik va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish zarur. Shuningdek, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va inkluziv ta'limga oid tamoyillarni amaliyotga samarali tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 6-iyundagi 422-son qarori".
2. Inklyuziv ta'lim: Rossiyada rivojlanish istiqbollari (konferensiya uchun materiallar).
3. <http://inclusion.vzaimodeystvie.ru/news/ivsetakiobuchenie/>
4. Алехина С.В., Зарецкий В.К. Инклюзивный подход в образовании в контексте в контексте проективной инициативы «Наша новая школа» // Психологопедагогическое обеспечение национальной образовательной инициативы «Наша новая школа». М., 2010.
5. Нигматов, З.Г. Гуманистические основы педагогики: Учеб. пособие –
6. М.: Высш. шк., 2004. – 400 с.